OROL BO'YI MINTAQASIDA IQLIM O'ZGARISHINING IJTIMOIIY-IQTISODIIY OQIBATLARI VA ZAIF AHOLI QATLAMLARIGA TA'SIRI	1047
Madenova Elmira Nzamatdinovna	
УЛУЧШЕНИЕ УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМИ РИСКАМИ ЧЕРЕЗ ЦИФРОВИЗАЦИЮ В ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ: СИСТЕМАТИЧЕСКИЙ ОБЗОР	1052
Эргашев Мухиббек Аслам угли	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA KIMYO SANOATI KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH.....	1057
Xaydarova Kamola Axinjanovna, Umaraliyev Asliddin Faxriddin o'g'li	
BARQAROR IQTISODIIY O'SISHNI TA'MINLASHDA "YASHIL" LIZINGNI JORIY ETISH IMKONIYATLARI	1062
Latipova Shaxnoza Maxmudovna	
ПРЕФЕРЕНЦИИ И РИСКИ УЗБЕКИСТАНА ОТ ИНИЦИАТИВЫ «ОДИН ПОЯС, ОДИН ПУТЬ»	1067
Wang Jianhong, Наров Улугбек Ирискулович	
DAVLATNING IQTISODIIY SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISHDA XALQARO TAJRIBALARDAN FOYDALANISH.....	1071
Karimov Ulug'bek Mirzajon o'g'li	
TA'LIM TIZIMIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARI	1075
Quralov Nurxissa Iles o'g'li	
TURIZM SOHASIDA TRANSPORT XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIIY-IQTISODIIY MEKANIZMI.....	1082
Haydarov Jasur Baxodir o'g'li	
O'ZBEKISTONDA AUDITORLIK FAOLIYATINING ISTIQBOLLARI	1087
Mamatov Xabibulla Mamatovich	
O'ZBEKISTON ZIYORAT TURIZMI BRENDINI SHAKLLANTIRISHDA MUQADDAS QADAMJOLARNING MARKETING SALOHIIYATI	1091
Turayev Ziyadulla Norsoatovich	
ASOSIIY KAPITALGA YO'NALTIRILGAN INVESTISIYALARNI MOLIIYALASHTIRISH MANBALARINI TAKOMILLASHTIRISH	1095
Xoshimov Sobir Murtazayevich	
KREATIV IQTISODIYOTNING TARKIBI, TASNIFI VA RIVOJLANTIRISH OMILLARI.....	1103
Daminova Madinaxon Bahromjon qizi	
TURIZM TURLARINI DIVERSIFIKATSIYALASHDA ZAMONAVIIY TENDENSIYALAR VA INNOVATSION YONDASHUVLAR.....	1110
Saidova Dilfuza Abdufattohovna	
O'ZBEKISTONDA OBLIGATSIYALAR BOZORINING RIVOJLANISHI VA UNING IQTISODIIY AHAMIIYATI	1117
Muxammedova Zarina Murodovna	
SUG'ORILADIGAN YERLARNING EKOLOGIK HOLATINI YAXSHILASHNING IQTISODIIY MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISHDA JAHON TAJRIBALARI	1121
Sultonov Xudoyshekur G'ayratovich	
IQTISODIIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH BO'YICHA ILG'OR XORIJ TAJRIBASI.....	1126
Xaydarov Ravshan Xikmatullaevich	
ВЛИЯНИЕ ТОРГОВОГО БАЛАНСА УЗБЕКИСТАНА И КИТАЯ НА РАЗЛИЧНЫЕ ОТРАСЛИ.....	1131
He Xiaogu, Уркинбаев Т. А.	
РОЛЬ ПРЯМЫХ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В РЕФОРМИРОВАНИИ ЭКОНОМИК СТРАН ПЕРЕХОДНОГО ТИПА	1135
Qian Xuanhong, Наров Улугбек Ирискулович	
"YASHIRIN IQTISODIYOT"NING ULUSHINI QISQARTIRISHDA AUDITNING O'RNI	1140
Qo'shmatov Otaxon Qurbonaliyevich	



TRANSFERRING PORT MULTIMODAL COORDINATION CAPABILITIES ACROSS INSTITUTIONAL CONTEXTS: LOCALIZATION MECHANISMS IN THE CHINA-UZBEKISTAN LOGISTICS CORRIDOR.....	1146
Mu Zhendi	
TURIZM XIZMATLARINING SIFATINI OSHIRISH ORQALI MEHMONDO'STLIK INDUSTRIYASINI RIVOJLANTIRISH.....	1156
Z.T. Bakayev	
ESG-ПРИНЦИПЫ В СТРОИТЕЛЬСТВЕ УЗБЕКИСТАНА: ОТ ПЕРВЫХ ИНИЦИАТИВ К ФОРМИРОВАНИЮ УСТОЙЧИВОЙ МОДЕЛИ ОТРАСЛИ.....	1161
Аблаева Валентина Борисовна	
KAMBAG'ALLIK DARAJASINI PASAYTIRISHDA ISHLAB CHIQRISH FAOLIYATINI KENGAYTIRISHNING O'RNI.....	1169
Saparov Murod Irgashovich	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH VA IQTISODIY O'SISH O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK: EKONOMETRIK TAHLIL.....	1173
Qo'ziboyev Behzod Hamidovich	
"2025-YIL YAKUNI BO'YICHA O'ZBEKISTONDA INFLYATSIYA OMILLARI: IMF VA MARKAZIY BANK MA'LUMOTLARI TAHLILI".....	1177
Ergashev E'zozbek Umirzakovich, Vaxabov A.V.	
KORXONANING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA RAQOBAT RAZVEDKASIDAN FOYDALANISHNING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....	1183
Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li	
O'ZBEKISTON HUDUDLARIDA AHOLI MIGRATSIYASI TAHLILI (2010-2024 YILLAR).....	1188
Hojiyev Tal'at Toshpo'latovich	
ВОПРОСЫ ПРИМЕНЕНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОТРАСЛЯХ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА.....	1192
Аман Тургунович Кенжабаев, Бахтияр Бадриддинович Садриддинов	
SANOAT KORXONALARIDA YASHIL IQTISODIY FAOLIYATNI BAHOLASH USULLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH.....	1200
Zuxurova Nargiza Abdusattarovna	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IPOTEKANI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH AMALIYOTI.....	1204
Berdinazarov Zafar Ulashovich, Xayitov Bobirbek Ergashevich	
XALQARO STANDARTLARGA MUVOFIQ IKKIYOQLAMA SOLIQQA TORTISHNI BARTARAF ETISH MEXANIZMLARINING TAHLILI.....	1212
Rajapov Shuxrat Zaripbayevich	
SURXONDARYO VILOYATIDA YASHIL IQTISODIYOTNING HOZIRGI HOLATI VA YASHIL TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI.....	1221
Sharofitdinov Shaxzod Damin o'g'li	
TOSHKENT SHAHRIDA EKOLOGIK HOLAT YOMONLASHUVINING TASHQI INVESTITSİYALARGA TA'SIRI.....	1228
Poyonov Jamshid	
RAQAMLI TURIZM PLATFORMALARIDA KONTENT TAHLILI HAMDA SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI.....	1232
Janzakov Bekzot Kulmamat o'g'li	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OLIY TA'LIM SOHASIDA INVESTITSION RISKLARNI BAHOLASH TENDENSIYALARI.....	1240
Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA SIRKULAR BOSHQARUV STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1246
Utegenov Ilham Baxtiyarovich	
GO'SHT YETISHTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH ORQALI ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH (JIZZAX VILOYATI MISOLIDA).....	1250
Otabekov Javdod Nurulla o'g'li	



O'ZBEKISTONDA TASHQI AUDIT TIZIMINING RIVOJLANISHI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	1256
Ibayev Xo'jabek, Ergashev Olloyor Furqat o'g'li	
SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL BASES OF THE DEVELOPMENT OF SEPARATE SEGMENTS ... OF REGIONAL BUSINESS TOURISM	1261
Musayeva Shoirazimovna, Usmonova Dilfuza Ilkhomovna	
QISHLOQ XO'JALIGIDA "YASHIL" TRANSFORMATSIYANING XUSUSIYATLARI	1267
Tabayev Azamat Zaripbayevich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA ELEKTRON TIJORATNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY AHAMIYATI	1272
Babanazarova Gulzar Ziatdinovna	
EKOLOGIK SOLIQLARNI HISOBLASH VA UNDAIRISH METODOLOGIK ASOSLARINI YARATISH	1276
Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich	
IQTISODIYOTDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIK SANOAT ZONALARINI TASHKIL ETISHNING IQTISODIY VA IJTIMOY AHAMIYATI	1281
Fayziyeva Iroda Shuhrat qizi	
CAPITAL ADEQUACY AND FINANCIAL STABILITY OF COMMERCIAL BANKS IN UZBEKISTAN	1286
Shokhrux Komilov	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA TURIZM SOHASINI STATISTIK BAHOLASH METODOLOGIYASI	1291
Jumanova Zilola Tuychiyevna, Sur'atova Mohiraxon Shavkat qizi	
AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANISHINI BAHOLASHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	1296
Raximova Moxigul Isroiljonovna	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA HUDUDIY TAMOYILLARNING O'RNI	1300
Abduraimov Dilshod Muratkulovich	
ENHANCING STRATEGIC MANAGEMENT IN TOURISM SERVICE ENTERPRISES IN UZBEKISTAN: A SWOT-BASED ANALYSIS	1304
Mustafakulova Sitara Shukhratovna	
SUG'URTA KOMPANIYALARIDA AXBOROT TIZIMLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH ORQALI MOLIYAVIY BARQARORLIKKA ERISHISH YO'NALISHLARI	1310
Maxmudov Abduxalil Abduraxmon o'g'li	
O'ZBEKISTON AHOLISI JINSI NISBATINING HUDUDIY VA YOSH FARQLANISHINI STATISTIK TADQIQI	1314
Toshmatov Zoyir Xudayberganovich, Begalova Durdona Baxodirovna	
MAMLAKATDA INVESTITSIYA MUHITNI YAXSHILASH ORQALI INVESTITSION JOZIBADORLIKNI OSHIRISH YO'LLARI	1321
Roza Xudaybergenova	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA AHOLI BANDLIGINING INNOVATSION VA MOSLASHUVCHAN SHAKLLARINI RIVOJLANTIRISH	1326
Umarova Gulandom Tumanovna	
ГОСУДАРСТВЕННО-ЧАСТНОЕ ПАРТНЕРСТВО В КОММУНАЛЬНОЙ СФЕРЕ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ОПЫТА КИТАЯ И ВЕЛИКОБРИТАНИИ И ВОЗМОЖНОСТИ УЗБЕКИСТАНА	1330
Гулмаматова Дурдона Шерали кизи	
KONSTRUKTIV MASALANI YECHISH USLUBI	1334
Azimov Alisher, Sabirova Dildora, Tairova Nafisa	
ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ КОНСОЛИДИРОВАННОЙ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ	1338
Махмудова Наргиза Давлят кизи	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYALAR JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING BUXGALTERIYA HISOBIDAGI TA'SIRI	1343
Mardonov Mamed Shavkatovich, Suyunov Raxmatillo Raximberdi o'g'li	
АНАЛИЗ И СПОСОБЫ ПОВЫШЕНИЯ ФИНАНСОВО-ДЕЛОВОЙ АКТИВНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЯ	1347
Ахмедова Азиза Тохириевна	



MAKROIQTISODIY TEBRANISHLAR VA IQTISODIY SIKLLAR: SABABLARI VA RIVOJLANISHGA TA'SIRI.....	1352
Muxammedov Murod Muxamedovich	
O'ZBEKISTONDA VAZIRLIK VA IDORALARDA ICHKI AUDIT XIZMATLARI FAOLIYATINI BAHOLASH VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI.....	1356
Ibragimova Muxlisa Abdulxakimovna	
HUDUDNING IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDA TURISTIK-REKREATIONS SALOHİYATNING MAZMUNI VA ILMIY TALQINI.....	1362
Usmanova Zumrad Islamovna	
ВЛИЯНИЕ ТОРГОВОГО БАЛАНСА УЗБЕКИСТАНА И КИТАЯ НА РАЗЛИЧНЫЕ ОТРАСЛИ.....	1366
He Xiaoqi, Уркинбаев Т. А.	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI KREDITLASH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISHNING INSTITUTSIONAL VA MOLIYAVIY JIHATLARI TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI.....	1370
Dilobar Isomjonovna, No'monova Hilola Muftillo qizi	
SUG'URTA VA FOND BOZORLARI O'RTASIDAGI O'ZARO INTEGRATSIYA BO'YICHA XORIJ TAJRIBASI.....	1375
Kengesbaeva Suluxan Maxsetbay qizi	



SUG'URTA VA FOND BOZORLARI O'RTASIDAGI O'ZARO INTEGRATSIYA BO'YICHA XORIJ TAJRIBASI

Kengesbaeva Suluxan Maxsetbay qizi

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti doktoranti

Email: suliukhankengesbaeva@gmail.com

Annotatsiya. Mamlakatimizda investitsion loyihalarni moliyalashtirishda sug'urtalash tizimining ustunliklari hamda o'ziga xos xususiyatlari ko'rsatib berilgan. Investitsion loyihalarni moliyalashtirishda sug'urta amaliyotini rivojlantirishning zaruriyatlari aksini topgan. Investitsion loyihalarni moliyalashtirishda sug'urtalash faoliyatida uni qo'llash imkoniyatlari tadqiq etilgan hamda tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: investitsiya, investitsion loyiha, investitsiya tavakkalchiligi, sug'urta shartnomasi, sug'urta davri, risk.

Abstract. The article shows the advantages and peculiarities of the insurance system in financing investment projects in our country. The financing of investment projects reflects the need to develop insurance practices. The possibilities of its application in the financing of investment projects in insurance activities have been studied and recommendations have been developed.

Key words: investment, investment project, investment risk, insurance contract, insurance period, risk.

Аннотация. В статье показаны преимущества и особенности системы страхования при финансировании инвестиционных проектов в нашей стране. Финансирование инвестиционных проектов отражает необходимость развития страховой практики. Изучены возможности его применения при финансировании инвестиционных проектов в страховой деятельности и разработаны рекомендации.

Ключевые слова: инвестиции, инвестиционный проект, инвестиционный риск, договор страхования, страховой период, риск.

KIRISH

G'arb amaliyotida sug'urta kompaniyalari moliyaviy jihatdan iqtisodiyotning va fond bozorining jiddiy institutsional o'yinchilari hisoblanadi. Ayni paytda fond bozoriga qilingan investitsiyalar sug'urta zaxiralari va sug'urta kompaniyalarining o'z mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi. Shu bilan birga sug'urta kompaniyalarining qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalarining yillik miqdori hatto to'plangan sug'urta mukofotlari miqdoridan sezilarli darajada yuqori bo'lishi mumkin.

Qimmatli qog'ozlar bozorida xaridor sifatida sug'urta kompaniyalari rolining o'ziga xos xususiyati shundaki, ular o'zlarining bozordagi imkoniyatlaridan kelib chiqib investitsiyalarni qisqa va uzoq muddatli yoki xavf darajasi yuqori yoki xavfsiz bo'lgan operatsiyalar bilan shug'ullanishlari mumkin, ammo amaliyotda ular juda konservativ faoliyat olib boradilar. Bu yerda faoliyat nafaqat iqtisodiy va siyosiy, balki bozordagi marketing holatiga ham bog'liq bo'ladi.

Bu yerda har qanday holatda ham davlat nazorat organlari sug'urta kompaniyalarini spekulativ moliyaviy operatsiyalarni olib boruvchi investorlar hisobiga tushib qolishga yo'l qo'ymaydi. Shuningdek, investitsiyalarning uzoq muddatli bo'lganligi ham bunday faoliyatga yo'l qo'ymaydi. Sug'urta nazorat organlari bunda sug'urta kompaniyalarining aktivlarini investitsiya qilish jarayonlarida aktiv turlari bo'yicha cheklash va ixtiyoriy investitsiya siyosatini olib borishlariga undaydilar. Masalan, Germaniyada xavf darajasi yuqori bo'lgan qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilish taqiqlanadi, AQShda esa bunday qimmatli qog'ozlar guruhiga aktivlarning 1 foizdan ko'p miqdorini joylashtirishga umuman yo'l qo'yilmaydi. Buyuk Britaniyada turli xil nodavlat qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar 1–5% miqdorida cheklovlar o'rnatilgan. Bundan tashqari, ayrim mamlakatlarda sug'urta kompaniyalarining investitsiyalarini davlat qimmatli qog'ozlariga joylashtirish uchun to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatmalar mavjud, bu nafaqat sug'urtalanuvchilarning mablag'larini himoya qilishni, balki davlat qarzini barqaror joylashtirishni ta'minlaydi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sug'urta va fond bozorlari o'rtasidagi o'zaro integratsiya masalasi xorijiy ilmiy manbalarda moliyaviy tizim barqarorligini ta'minlovchi muhim omil sifatida keng yoritilgan. Ko'plab tadqiqotlarda sug'urta kompaniyalari uzoq muddatli moliyaviy resurslarga ega institutsional investorlar sifatida kapital bozorlarining chuqurlashuviga, qimmatli qog'ozlar aylanmasining ortishiga va bozor likvidligining ta'minlanishiga xizmat qilishi ta'kidlanadi. Xususan, Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD) materiallarida sug'urta va pensiya fondlarining aksiya va obligatsiya bozorlaridagi barqaror ishtiroki investitsiya muhitini yaxshilashi va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashi ilmiy asoslangan.

Mazkur yo'nalishdagi adabiyotlarda asosan taqqoslama tahlil, keys-stadi va institutsional tahlil usullaridan foydalanilgan. Turli mamlakatlar amaliyotini solishtirish orqali sug'urta zaxiralarini fond bozorida joylashtirish modellari o'rganilgan. Bu borada World Bank hamda International Monetary Fund (IMF) hisobotlarida rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilinib, sug'urta sektori kapital mobilizatsiyasining muhim manbai ekani ko'rsatib berilgan.

Adabiyotlarda keltirilgan natijalar shuni ko'rsatadiki, sug'urta kompaniyalari aktivlarining katta qismi obligatsiyalar va aksiyalarga yo'naltiriladi. George E. Rejda asarlarida sug'urta investitsiya siyosatining asosiy tamoyili diversifikatsiya, risk va daromad o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash ekani ta'kidlanadi. Shuningdek, International Association of Insurance Supervisors (IAIS) hisobotlarida sug'urta zaxiralarini xavfsiz va samarali joylashtirish orqali moliyaviy barqarorlikka ijobiy ta'sir ko'rsatilishi qayd etiladi.

Muhokama qismida esa regulativ siyosatning ahamiyati alohida urg'u bilan yoritiladi. Xususan, European Insurance and Occupational Pensions Authority (EIOPA) tomonidan joriy etilgan Solvency II talablari sug'urta kompaniyalarining investitsiya faoliyatini risk darajasiga mos ravishda boshqarish imkonini berishi ilmiy asoslab berilgan. Umuman olganda, xorijiy adabiyotlar sug'urta va fond bozorlari o'rtasidagi integratsiya moliyaviy tizim samaradorligi, kapital bozori rivojlanishi va investitsiya faolligining oshishiga xizmat qilishini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ma'lumotlar xalqaro tashkilotlar (OECD, IMF, World Bank) hisobotlari, milliy statistika ma'lumotlari hamda sug'urta kompaniyalari faoliyatiga oid ochiq manbalardan yig'ildi. Ularni tahlil qilishda taqqoslama va statistik tahlil usullari, dinamik qatorlar hamda strukturaviy tahlil yondashuvlari qo'llanildi, natijalar umumlashtirish va mantiqiy xulosalash orqali baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ko'plab g'arb mamlakatlari fond bozorlarining rivojlanganligi ular tomonidan taqdim etilayotgan investitsiya instrumentlarining turli-tumanligidan ham ko'rishimiz mumkin. Masalan, Qozog'iston Respublikasi sug'urta kompaniyalarining fond bozori instrumentlarining xilma-xilligi bunga yaqqol misol bo'la oladi (1-jadval).

1-jadval. Qozog'iston Respublikasi sug'urta sektorining sug'urta aktivlari strukturasi¹

Ko'rsatkichlar turlari	01.01.2024 y		01.01.2025 y		Yil boshidan yil oxiriga o'zgarishi %da
	mln.tenge	Jamiga nisbatan %da	mln.tenge	Jamiga nisbatan %da	
Pullar	42068	4,5	40739	3,9	-3,2
Depozitlar	208348	22,5	190438	18,2	-8,6
Qimmatli qog'ozlar	424820	45,9	543778	51,9	28,0
Repo operatsiyalari	52891	5,7	71014	6,8	34,3
Vositachilardan olinishi kerak bo'lgan sug'urta mukofotlari	31436	3,4	29411	2,8	-6,4
Asosiy vositalar	18921	2,0	17560	1,7	-5,7
Qayta sug'urta aktivlari	110237	11,9	111843	10,7	1,5
Debitor qarzdorlik	12243	1,3	10401	1,0	-15,0
Boshqa aktivlar	25379	2,7	33327	3,2	31,3
Jami aktiv	926043	100	1048510	100	13,2

1 Qozog'iston sug'urta regulatori ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayёрlandi. www.nationalbank.kz



G'arb mamlakatlarida investitsiya siyosatining shaffofligi sug'urta kompaniyalarining xavfli investitsiya siyosati bilan shug'ullanishini tiyib turadi, sababi bunday siyosat sug'urta mahsulotlarini sotishni xavf ostiga qo'yadi. Sug'urta kompaniyalari mijozlarning xavflarini sotib olsada, qimmatli qog'ozlar bozorida xavfli investitsiya siyosatini olib borishlariga haqlari yo'q. Yuqori foyda olish maqsadida shubhali operatsiyalar bilan shug'ullanish oqibatida sug'urta kompaniyalari o'z mijozlarining ishonchini yo'qotishlari mumkin, bu esa fond bozorida yo'l qo'yib bo'lmaydigan xatodir.

Moliya sohasining asosiy pul yig'uvchilari sifatida sug'urta kompaniyalari qimmatli qog'ozlar bozoriga qarama-qarshi tomondan kirishga majbur bo'ladilar, bu degani ular o'zlarining qimmatli qog'ozlari emitentlari bo'lishlari hisoblanadi.

Sug'urta kompaniyalari umumiy talablar doirasida faoliyat yuritadilar va ularning qimmatli qog'ozlar bozorida emissiya faoliyati boshqa soha vakillari faoliyatidan deyarli farq qilmaydi. Jami emissiya faoliyatining ko'lami va ayniqsa ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozorlarida sug'urta sohasi banklar yoki yirik moliya va sanoat guruhlar faoliyatidan ancha pastdir. Biroq ayrim yirik sug'urta kompaniyalari ochiq aksiyadorlik jamiyatlarining roli o'ta jiddiy baholanadi. O'zbekiston uchun bu yo'nalish hech qanday ahamiyatga ega emas, masalan, AQSh yoki Germaniyada sug'urta kompaniyasining aksiyalarini ochiq qimmatli qog'ozlar bozorida sotilishi oddiy holat hisoblanadi.

Bundan tashqari, sug'urta nazorati organlari sug'urta kompaniyalarining aksiyadorlarga hisobotlarni berish, qimmatli qog'ozlarni chiqarish uchun qo'shimcha ruxsat berish tartib-qoidalarini joriy etishlari mumkin. Masalan, Germaniyada sug'urta faoliyatini nazorat qilish federal boshqarmasi nafaqat sug'urtalanuvchilar, balki sug'urta kompaniyasi aksiyadorlarining ham manfaatlarini himoya qiladilar, agarda nizo yuzaga kelganda aksiyadorlar nazorat organiga shikoyat qilishlari mumkin, bunda nazorat organlari aksiyadorlar tarafida turib, mavjud nizolarni bartaraf etish yuzasidan ularga maslahatlar va boshqa xizmatlarni ko'rsatishlari mumkin.

Biroq bugungi kunda sug'urta kompaniyalari fond bozori orqali nafaqat kapitalni oshirish, balki qimmatli qog'ozlar emissiyasi orqali ular bozorda risklarni qayta taqsimlash faoliyatlarini olib bormoqdalar. Qator g'arb qayta sug'urta kompaniyalari tomonidan aralash moliyaviy vosita sifatidagi "falokatli" deb nomlanuvchi obligatsiyalarni chiqarish amaliyoti keng joriy etilmoqda. Obligatsiya xaridorlariga ular yuqori rentabellikni va'da qilishadi (oddiy obligatsiyalarga nisbatan), ammo ma'lum bir falokat yuz berganda (masalan, zilzila yoki boshqa turdagi keng ko'lamli tabiiy ofat) obligatsiya egalari foiz yoki investitsiya mablag'ining ayrim qismini, ba'zan esa hammasini yo'qotishlari mumkin.

Sug'urta kompaniyasi aksiyadorga lotereyaga o'xshagan o'yinni taklif qiladi, bunda investor zilzilalar kam uchraydigan holat ekanligini hisobga oladigan bo'lsa, yuqori foizdagi daromad olishi mumkin bo'ladi. Bundan tashqari, bunday "falokatli" obligatsiyalar bozordagi makroiqtisodiy ko'rsatkichlardan holi ravishda amal qiladi va daromad olish bu ko'rsatkichlarga bog'liq bo'lmaydi. Sug'urta kompaniyasi esa aksincha, agar falokat yuz bersa, u ta'minlangan mablag'larga ega bo'ladi.

Ammo sug'urta kompaniyalarining bunday faoliyatlarini emissiya deb baholash mumkin emas, sababi bu obligatsiyalar savdosi emas, balki uning mohiyatiga yaqin bo'lgan qayta sug'urta orqali xavfni taqsimlashga o'xshaydi. Chet el adabiyotlarida bunday iqtisodiy hodisa "sekyutirizatsiya" deb ataladi. Bizning fikrimizcha, bunday operatsiyalar kelajakda katta istiqbolga ega, chunki bu sug'urta bozorining salohiyatini oshiradi va yuqori xavflar bilan bog'liq zararlarni qoplab berilishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, qayta taqsimlash bosqichlari soni va uni tashkil etish xarajatlari (qayta sug'urtalash kanallari bilan taqqoslaganda) kamayadi va natijada sug'urta kompaniyalari mijozlariga xizmat ko'rsatish xarajatlari pasayadi.

Bunday innovatsion operatsiyalarni milliy sug'urta bozorimizda qo'llash biz uchun juda yaxshi samara berishi tabiiy, sababi qayta sug'urta kompaniyalarining yo'qligi bunga ijobiy turtki bo'lar edi. Ammo fond bozorining kapitallashuv miqdori kam bo'lganligi sababli bunday operatsiyalarni olib borish imkoniyati hozircha mavjud emas.

Qimmatli qog'ozlarning jozibadorligini ta'minlashning muhim shartlaridan biri bu emitentning ishonchli sug'urta kompaniyasi bilan sug'urta shartnomasiga ega bo'lishidir. Misol uchun oddiy investorlarning investitsiya xavfi sug'urtalanganligi investorlarda bo'lgan ishonchni oshiradi. Sababi oddiy investorga nisbatan sug'urta kompaniyasi investitsiyalarni sug'urtalashdan oldin uni batafsil va izchil ekspertiza tekshiruvidan o'tkazadi, bu esa oddiy investor tekshiruvidan bir necha bor ishonchlidir.

Ko'pgina mamlakatlarning qonunchilik hujjatlariga muvofiq sug'urta kompaniyalari banklar va kredit tashkilotlari bilan birga kafillik vazifasini bajarishi mumkin, ya'ni mijozlarning majburiyatlarini bajarishlarini kafolatlaydi. Bunda sug'urta kompaniyasi mijoz o'z majburiyatini bajara olmasa, sug'urta kompaniyasi mijozning uchinchi shaxslar oldidagi qarz majburiyatlarini to'lab beradi. Yirik sug'urta kompaniyalarining kafilligi investitsiyalarning ishonchligini aniqlashda yaxshi dalil bo'lib xizmat qiladi, shuning uchun xalqaro aloqalarda sug'urta kompaniyasining kafillik berishi keng tarqalgan amaliyotlar sirasiga kiradi.

Sug'urtalash tizimining rivojlanganligi va undan foydalanish iqtisodiyotning inqirozlarsiz rivojlanishi garovidir, shundan kelib chiqqan holda qimmatli qog'ozlar bozori rivoji uchun ham qulay shart-sharoit yaratib



beradi. Yuqorida aytib o'tilganidek, fond bozori makroiqtisodiy sikllarning o'zgarishi va bozor konyunkturasining tebranib turishi bilan bog'liq omillar o'zgarishiga juda moyil hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida, ishlab chiqarish jarayonlarining uzluksizligini ta'minlovchi moliyaviy mexanizm sifatida sug'urta makroiqtisodiy omillarning barqarorligini va ularning nisbatining muvozanatini optimallashtirishga yaqindan yordam beradi.

Yirik miqdordagi tabiiy yoki texnogen falokatlar katta hududlar bo'ylab yuz berganda, sug'urta mexanizmi zararlarni qoplab berishi bilan mamlakatning moliyaviy imkoniyatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, sug'urta kompaniyalarining barqaror investitsion faoliyat olib borishlari natijasida iqtisodiyotni "uzun" pullar bilan ta'minlovchi asosiy moliyaviy institutlardan biri hisoblanadi. Shuning uchun rivojlangan mamlakatlarda sug'urtaning, ayniqsa jamg'arib boriladigan sug'urta turlarining rivojlanish darajasiga qarab mamlakatning monetar tizimining rivojlangani, inflyatsiyaning darajasi va investitsiyalarning rivojlanishiga to'g'ridan-to'g'ri baho beriladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda sug'urta sohasining keyingi rivojlanishi davlatning istiqbolda bu boradagi qilishi kerak bo'lgan vazifalariga bog'liq bo'ladi. Tahlillarimizda shuning guvohi bo'ldikki, mamlakatimiz bo'yicha sug'urta xizmatlari ko'rsatilishi qamrovi oxirgi besh yilda sezilarli darajada oshgan, shuningdek sug'urta kompaniyalarining kapitallashuv darajasi ham sezilarli darajada oshgan. Bu holat sug'urta kompaniyalarining sug'urta bozorida sug'urta mahsulotlarini taklif qilishi va mijozlarga sifatli sug'urta xizmatlari ko'rsatilishi yaxshilanib borayotganligidan dalolat beradi va o'z navbatida bunday o'zgarishlarning asosiy sababi davlat tomonidan soha faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar tizimli olib borilayotganligidandir. Shu bilan birga, sug'urta sohasida kapital jalb qilish muammolari, bo'sh turgan pul mablag'larini investitsiya qilishning rang-barang emasligi va qonunchilik bilan katta cheklovlar mavjudligi hali ham bartaraf etilmaganligini ta'kidlash lozim.

O'zbekistonda sug'urta bozorining fond bozoriga ta'siri va sug'urta kompaniyalarining fond bozoridagi rolini yanada oshirish maqsadida quyidagi takliflar tavsiya qilinadi:

1. Sug'urta kompaniyalari investitsiya faoliyatiga davlat aralashuvini kamaytirish, sug'urta sohasidagi investitsion faoliyat bilan bog'liq qonunchilikda mavjud bo'lgan cheklovlarni bekor qilish, ya'ni sug'urta kompaniyalari investitsiya qilishi mumkin bo'lgan sohalarni kamaytirish yoxud minimallashtirish, chunki davlat tomonidan sug'urta kompaniyalari investitsiya faoliyatiga aralashuv sug'urta kompaniyalarining bo'sh mablag'larini kengroq joylashtirish imkoniyatini cheklab, investitsiya faoliyatidan olinadigan daromad samaradorligini pasaytirishga olib keladi. Bu esa o'z navbatida sug'urta kompaniyalari tomonidan davlat budgetiga to'lanadigan soliqlarning kamayishiga olib keladi.

2. Sug'urta tashkilotlarining depozitlarga qo'yilgan mablag'lar, qimmatli qog'ozlar bo'yicha foiz daromadlaridan olinadigan soliq stavkasini kamaytirish yoxud umuman bekor qilish.

3. Sug'urta kompaniyalarining bank depozitlariga qilinadigan qo'yilmalar miqdori bo'yicha maksimal cheklovni bekor qilish (hozirda 40%), chunki bu amaliyot orqali sug'urta kompaniyalari investitsion faoliyati liberallashtiriladi va daromadlarining maksimallashtirishiga erishiladi, bu o'z navbatida tijorat banklarining kredit salohiyatini oshiradi. Ushbu investitsiyalarning rentabelligi bir qator sabablar (bank sektorining barqarorligi) bilan bog'liq, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy sohani rivojlantirishga turtki bo'ladi.

4. Sug'urta sohasidagi ilg'or mamlakatlar tajribasini o'rganib chiqqan holda real iqtisodiyotga, ya'ni davlat ulushi 30% dan oshiq bo'lgan qazib olish, ishlab chiqarish va qayta ishlashga ixtisoslashgan korxonalarga investitsiya qilish imkonini berish, chunki bunday korxonalarda risklilik darajasi past hisoblanadi. Bu o'z navbatida mamlakat iqtisodiyotining o'sishiga va jadal rivojlanishiga turtki bo'lishi mumkin.

5. O'zbekiston Respublikasi qimmatli qog'ozlar bozorida yangi investitsiya obyektlarining paydo bo'lishi (obligatsiyalar) sug'urta kompaniyalarining bu boradagi faoliyatlarini qonunchilikda muvofiqlashtirishni talab qilib qo'yimoqda. Shulardan kelib chiqqan holda sug'urta kompaniyalarining obligatsiyalar chiqarish huquqini berish.

6. Shuningdek, sug'urta kompaniyalarining investitsiya obyekti bo'lgan, ya'ni boshqa yuridik shaxslarning ustav kapitalida ishtiroki bo'yicha qo'yilgan maksimal talablarni bekor qilish (hozirda 30%), bu esa o'z navbatida yangi korxonalar sonining ko'payishiga, soliq bazasining oshishiga, qolaversa yangi ish o'rinlarini yaratish imkonini beradi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, sug'urta bozori respublikaning o'sib borayotgan bozor segmentlaridan biridir, shuningdek sug'urta kompaniyalarini investitsiya jarayonlariga jalb qilish nuqtayi nazaridan juda muhim istiqbolga ega ekanligini alohida ta'kidlash o'rinlidir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Ходжаева Г. (2015) Роль страховых компаний на фондовом рын-ке. / biznes-эксперт номер №5 (88)
2. Годин А.М., Фрумина С.В. (2019) Страхование: Учебник. - М.: Издательско-торговая корпорация «Дашков и К», - с. 36.
3. Романова А. А, Улыбина Л. К. (2017) Состояние и перспективы развития мирового страхового рынка. Региональная экономика и управление: электронный научный журнал // Номер журнала: №4 (52).
4. Улыбина Л.К., (2024) "Глобализации" issue 3 (127), pages 69-77.
5. Казакова А.А. (2023) Перспективы развития инвестиционно-страховых продуктов в России. Специальность – 08.00.10 – Финансы, денежное обращение и кредит. АВТОРЕФЕРАТ Диссертации на соиска-ние ученой степени кандидата экономических наук. – 28 стр.
6. Sangyong Hana, Gene C. Lai b, Chia-Ling Hoc. Corporate transparency and reserve management: Evidence from US property-liability insurance companies. Journal of Banking and Finance (2018) №96. p 379–392
7. Chrysovalantis Gaganisa, Iftekhar Hasanb, Panagiota Papadimitrie, Menelaos Tasioue. National culture and risk-taking: Evidence from the insurance industry. Journal of Business Research (2019) №97, p 104–116
8. Смирнова Н.В. (2023) Механизм формирования страховых резервов как средство повышения эффективности функционирования стра-хового рынка. "Российское предпринимательство" № 15 (237).
9. International Association of Insurance Supervisors (IAIS). Global Insurance Market Report. — Суғурта бозори, захираларни жойлаштириш ва рисклар бўйича глобал таҳлиллар.
10. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). Institutional Investors and Capital Markets. — Институционал инвесторлар (суғурта ва пенсия фондлари)нинг капитал бозоридаги роли.
11. International Monetary Fund (IMF). Global Financial Stability Report. — Молиявий барқарорлик ва бозорлар ўзаро боғлиқлиги таҳлили.
12. World Bank. Insurance and Contractual Savings in Emerging Markets. — Ривожланаётган бозорларда суғурта ва инвестиция фаолияти.
13. Bank for International Settlements (BIS). Quarterly Review: Institutional Investors and Financial Markets.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>